

Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asar matnida frazeologiyalarni qo‘llanilishi

Abdullayeva Vazira Quronovna

Qo‘qon Universiteti “Ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asarida tarixiy frazeologiyalarni qo‘llanilishi va ularning hozirgi kun nuqtayi nazaridan ifodalanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, frazeologik birikmalar, ko‘chma ma‘no, tarixiy jarayon, frazema, frazema tarkibi, frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование исторической фразеологии в тексте «Кутадгу Билиг» и их выражение с точки зрения сегодняшнего дня.

Ключевые слова: фразеология, фразеологические сочетания, переносное значение, исторический процесс, фразема, фраземный состав, фразеологическая моносемия и фразеологическая полисемия.

Abstract: This article discusses the use of historical phraseology in the text of "Kutadgu Bilig" and their expression from the point of view of today.

Key words: phraseology, phraseological combinations, figurative meaning, historical process, phraseme, phraseme composition, phraseological monosemy and phraseological polysemy

Kirish

Yurtimizda o‘zbek tilshunosligining yanada rivojlanishi asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish o‘ta muhim hisoblanadi. Asarlardagi til xususiyatlarini tahlil qilishda matndagi so‘zlarning fonetik o‘zgarishlari, so‘z turkumlari, ma‘no ko‘chishi va frazeologik birikmalarni aks ettirilishi davr ruhi va leksik ma‘nolarni qanday qo‘llash bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tilshunosligining tarixiy jarayonini kuzatar ekanmiz, bir qator asarlar matnida til birliklarining o‘ziga xoslik mavjudligini ko‘ramiz. Bu borada O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Milliy o‘zligimizni anglashda, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy ishlar tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarurligi¹” yuzasidan ma‘ruza qildi. Ma‘zur Murojaatnoma asosida bir qator sohada ilmiy tadqiqot ishlari faollashdi.

Jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham asar matni ustida tadqiqot ishlari olib borilib bir qator muammolar yechildi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari matnini tahlil qilish jarayonida til birliklari, qo‘shimchalar, fe‘l xususiyatlari, o‘xshatish va frazeologik birliklar qo‘llaganini kuzatamiz.

Yusuf Xos Hojib asari 170 dan ortiq to‘rtlikdan iborat. Asar Qoraxoniylar hukumdorlik davrida yaratilgan. **Qoraxoni** - Qanoat timsol Chindan (Xitoydan) Kaspiy dengizgacha bo‘lgan hududda hukumronlik qilgan. Davr nuqtayi nazaridan asar til xususiyatlari ham bir qator o‘zgarishlarga uchragan.

Asar hijriy 461(mld.1089-1070) yillarda yozilgan, 18 oy ichida yozib tugatilgan. Hajm jihatidan yirik, badiiy jihatdan ancha mukammallikka ega bo‘lgan.

“Qutadg‘u bilig” asari 6500 bayt yoki 13 000 misraga yaqin she‘rlardan iborat. Muallif asarning yozilishi haqida quyidagicha bayon qiladi:

Yil oltmish eki erdi to‘rt yuz bila,
Bu so‘z so‘zladim man munib jon so‘ra,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev.Taraqqiyot yo‘limining shiddati yanada oshaveradi,Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ma‘ruza//Xalq so‘zi, Toshkent, 2018,29 dekabr

Tugal o 'z sakkiz aydi aydim bu so 'z,
O 'durdum adirdim so 'z evdib tera². (8 -bet)

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari XI asrda yozilishi bilan bir qatorda davrimizgacha yetib kelgan yagona birinchi badiiy asar va o'sha davr tilini aks ettiruvchi yagona namunadir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asar tili qadimiy turk tilida yozilgan. Shu sababli asar ma'no mazmuni barcha turkiy xalqlarga xos va ular uchun tushunarli bo'lgan.

Asardagi fe'l so'z turkumini kuzatar ekanmiz asosan fe'l yasovchi qo'shimchalarni tushib qolishi va bir qator o'xshatishlar va frazeologik birliklarni mavjud ekanligini kuzatamiz.

Fikrimizni muallif o'z asariga "Qutadg'u bilig" deb nomlanishi haqidagi baytida ham ko'rishimiz mumkin.

Kitab ati urdum "Qutadg 'u bilig",
Qutadsu o 'qug'liqqa tutsu elig.

Ma 'nosi:

Kitob otini "Qutadg 'u bilig" qo 'ydim,
O 'quvchiga baxt keltirsin, qo 'lidan tutsin.³

Ushbu baytda **tutsu-** fe'lida **-n** fe'l yasovchi qo'shimchani tushub qolishi yuzaga kelgan. "Qutadg'u bilig" asari ham epik hamda she'riy to'rtliklardan iborat asardir. Asarning 71,72,73-fasllaridan tashqari fasllari masnaviy shaklda yozilganligini kuzatisimiz mumkin. Oxirgi 73-faslida kitobning yozilgan yili ko'rsatib o'tadi. Ushbu baytlarni kuzatib o'tsak ayrim ot so'z tukumiga mansub so'zlarda fonetik tovush tushish hodisalari yuz berganiga guvoh bo'lamiz.

Yil altmish eki erdi to'rt yuz bila,
Bu so 'z so 'zladim man tutub jan sura.
Tugal o 'n sakkiz ayda aydim bu so 'z,
O 'durdum, adirdim so 'z evdib tera⁴

Bu holatda **eki-ikki**, **bila-bilan** kabi so 'zlarda fonetik tovush tushish hodisalari yuzaga kelgan. Asardagi bu kabi fonetik o'zgarishlar albatta davr ruhi bilan bog'lqdir.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek tilshunosligining yana rivojlanishida yangi muvaffaqiyatlarga erishishda B.Yo'ldashev, A.Mamatovlarning alohida xizmatlari mavjud. Ayniqsa ushbu tilshunoslar o'zbek tilshunosligida frazeologik iboralar yuzasidan alohida ish faoliyatlari olib borgaligini ta'kidlash mumkin.

Xususan, o'zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishish uchun B.Yo'ldashev, A.Mamatov va Sh.Rahmatullayevlarning xizmatlari juda katta bo'ldi. So'z yasalshi muammolarini o'rganilishida U.Tursunov va Z.Ma'rufova kabi tilshunoslar o'zlarining tadqiqot ishlari bilan maydonga keldi.

O'zbek tilshunosligida A.Zohiriy, A.Qodiriy, E.Polivanov, A.Borovkov, S.Akobirov, P.Abdurahmonov, SH.Rahmatullayev, N.Mamatov, T.Aliqulov va shu kabi boshqa bir qator tilshunoslar til xususiyatlari yuzasidan bir qator ilmiy ishlar olib borgan. So'z yasalishi muammosi o'zbek tilshunosligi tarixida uzoq davrlar mobaynida o'rganilib turli o'zgarishlar

² Yusuf Xos Hojib."Qutadg'u bilig".Toshkent, Fan nashiriyoti, 1951yil, 8-bet

⁴Yusuf Xos Hojib .Qutadg'u bilig.Toshkent. Fan nashiriyoti, 1951yil, 8-bet

asosida yuzaga kelgan. O‘zbek tilida so‘zlarni yasalishi yuzasidan U.Tursunovning “O‘zbekcha fe‘llarning yasalishi”, Z.Ma‘rufovning “O‘zbek tilida ot yasovchi suffikslar” kabi ilmiy taqdidot ishlari yuzaga keldi.⁵

Tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida so‘zlarning yasalishi va o‘rganish borasida A.G‘ulomov tomonidan ochib berildi. Bunda olim so‘zning morfologik tuzilishini so‘z yasalishi tuzilishini bir-biri bilan farqli tomonlari mavjudligini aniqlashga erishdi. Aytish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida bir qator tilshunoslar matndagi so‘zlarning leksik va grammatik jihatdan tahlil qilib chiqish borasida bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Tilda frazeologik birikmalarni transformatsiyasi, xususan, uning ayrim jodkorlar tomonidan ijodiy o‘zgartirilib qo‘llanilishiga doir tadqiqotlar Ya.D.Pinxasov, M.Xusainov, Sh.Shomaqsudov, I.K.Ko‘chkarayev, K.Samadov, A.Abdunazarov, E.Umarov, B.Yuldashev, S.Karimov, X.Kaxxarovlar tomonidan olib borilgan.⁶

TADQIQOT NATIJASI

O‘zbek tilshunosligiga xos xususiyatlarni tahlil qilishda mazkur maqolamizda biz tarix bitiklarida saqlanib qolgan asarlarning til xususiyatlarini o‘rganishga jazim qildikki, tarix orqali biz xalqimiz o‘tmishi, tili va madaniyatini bilib olamiz.

Ma‘lumki, Sharq xalqlarining madaniy hayotini rivojlanishida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining alohida o‘rni mavjud.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari butun turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning ham tilshunoslik hamda badiiy adabiyot namunasidir.. Ushbu asarda qadimgi turk tilining ifori sezilib turadi. Asarning ma‘no mazmunini to‘rtta badiiy obrazlarining aks ettirilishi ochib beradi. Kuntig‘du- (chiqqan oy) – adolat, Oyto‘ldi (to‘lgan oy) – baxt va davlat, O‘gdulmish (aql), O‘zg‘urmish (uyg‘ongan) – qanoat timsolida aks ettiriladi.

Asar qahramoni o‘rtasidagi o‘zaro suhbat bayon qilinadi. Suhbat jarayonidagi she‘riy matnlarda fikrlarni bayon qilishda ko‘chma ma‘noli so‘zlar va frazeologik birikmalar qo‘llash orqali asardagi voqelikni jonlantirishga erishgan.

Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so‘zdan, ya‘ni “phrseos” –ifoda va “logos” – so‘zlardan tashkil topgan. Frazeologiya tilshunoslikni ajralmas bir qismi bo‘lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtayi nazardan o‘rganadi.

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologiya va frazeologik birikmalar tilshunoslikning frazeologik tarkibi va hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotni tekshirishga ko‘mak beradi. Shu bilan birga muayyan tildagi frazeologizmlar majmui hisoblanadi. Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat-e‘tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so‘z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosida frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Umumiy tilshunoslik muqtayi nazardan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo‘lgan (ya‘ni erkin bo‘lmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so‘zlarni bir-biriga qo‘shish yo‘li bilan tuzilmaydigan til leksikonida tayyor holda mavjud bo‘lgan va jamiyat tomonidan belgilangan barqaror ma‘noga ega bo‘lgan ma‘lum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushuniladi.⁷

⁵ Uz.Wikipediya.Ochiq ensiklopediya.

⁶ B.I.Boltaboyeva. O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi . Dessertatsiya avtoreferati, 2019, 7-bet

⁷ M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish, Toshkent, Yangi asr avlodi, 2088, 214-b

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazemalar esa ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya hisoblanadi ⁸

Frazemaning ifoda plani deyilganida, uning tovush, leksik tarkibi, birikmaga yoki teng konstruksiyasi nazarda tutiladi.

Misol tariqasida, *ko'nglini olmoq* (birikmaga teng), *ko'zlari qinidan chiqib ketdi* (gapga teng) kabi. Frazemalar tarkibida qo'shma gapga teng keladigan turg'un iboralar ham uchraydi: *"qor yogib, izlar bosildi"* kabi⁹.

Frazemalar tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi so'zlarning bog'lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida so'zlar tobelanishi asosida bog'lanadi, biroq erkin birikmadagi va gapdagi bog'lanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir bo'ladi; frazema bog'lanish esa nutq paytidan ancha avval yuzaga kelib, turg'unlashib qoladi, inson xotirasida va tilda yaxlitligicha saqlanadi.

b) erkin birikmadagi yoki gapdagi so'zlarni so'zlovchi o'z ixtiyori bilan almashtira oladi: *"keng ko'cha"* birikmasi o'rnida *"tor ko'cha"* birikmasini, yoki *"men o'qiyman"* o'rniga *"men ishlayman"* gapini qo'llash mumkin. Shunu ham aytish kerakki, har qanday turg'un birikma frazema bo'lavermaydi. Bunday turg'un birikmalarda ma'no o'z ma'nosida qo'llaniladi. ¹⁰

Frazemalarning mazmun plani ko'chma, aks holda uni to'g'ri ma'noli turg'un birikmadan farqi qolmaydi. Frazemaning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Masalan, *"to'nini teskari kiydi"* frazemasining semantik tarkibi *"o'chakishmoq"* bilan birga *"qaysarlik"* kabi uslubiy bo'yoqlik mavjud. ¹¹

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi - frazeologiyada o'rganish masalasi 20-40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda - Ye.D.Polivanov, S.Abakumov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmagan. Tilshunoslikda frazeologik birikmalar ma'lum fikrni to'laqonli tushunishga xizmat qilgan. ¹²

Tilshunoslikda frazeologiyalar ikkita ma'noni bildirgan. Bu kabi frazeologik birikmalar frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiya deb atalgan. Frazeologik monosemiyada tarkibida bitta frazeologik ma'no boladi. Misol tariqasida *"Qo'l solib ko'rish"* - *bilmoq ma'nosini* anglatadi. Frazeologik polisemiya tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nolarni anglash mumkin bo'ladi.

Misol tariqasida *"Ko'zini oq-u qorasi edi"* frazeologik birikmasida *"bola"* ma'nosida shu bilan birga *"arzanda"* (*erka ekanligi*) ma'nosida tushunilishi mumkin bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bunda ma'no ko'chishiga asoslanadi.

⁸ N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2006, 204-b

⁹ N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2006 yil, 204-b.

¹⁰ N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2006 yil, 205-b.

¹¹ N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2006 yil, 208-b.

Shuni ham aytish kerakki frazeologik birliklar semantik jihatdan ham o'ziga xoslikka ega. Ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

1.Frazeologik butunlik. Bunda frazeologik ko'chma ma'no umumlashgan holda anglash mumkin bo'ladi. Misol tariqasida, *“tepa sochi tikka bo'lmoq”* frazemasida *“gazablanmoq”* ma'nosini, *“boshi og'ridi”* frazemasini orqali *“bezor bo'lish”*, *“zekirish”* ma'nosini tushunish mumkin.

2.Frazeologik chatishma. Bunday frazema ifodalangan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Bunda frazeologik birikmalar o'zaro chatishgan holda qo'llaniladi. Birgalikda kelgan iboralarning ikkalasi ham turg'un ibora hisoblanadi hamda bir ma'no, ya'ni ko'chma ma'no ifodalaydi. Masalan, **“Senga ish yo'q deb!”-bizni quyib yubordi, ikki qo'limizni burnimizga tiqib o'z uyimizga bordik.** Har ikkala frazemalar biri ikkinchisiga o'zaro bog'langan.¹³

Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg'u bilig”* asarini kuzatish davomida asar matnida asar syujetini yaratishda bir qator frazeologik birikmalardan foydalanganini ko'ramiz. Asardagi bu kabi tilshunoslikka xos xususiyatlarni hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazardan tahlil qilish tilshunoslikning vazifasi hisoblanadi.

Tarixiy til xususiyatlarni tahlil qilish maqsadida XI asrda yozilgan Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg'u bilig”* asarini kuzatar ekanmiz muallif o'xshatish va frazeologik birikmalardan mohirona foydalanganiga amin bo'lamiz. Asarda o'xshatish va frazeologik birliklarning ifodalanishi so'zlarning leksik ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan. Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg'u bilig”* asarida bir qator tarixda qo'llanilgan frazeologik birikmalar uchraganini ko'rish mumkin. Bu kabi frazeologik birikmalarni tahlil qilganimizda hozirgi kun nuqtayi nazardan o'ziga xos bir qator ma'nolarni anglatganini his qilamiz.

Йашық йанды болға йана орныка
Балық кудруқындын қозы бурныка

Ma'nosi:

Quyosh qaydi, yana o'z orniga keldi
Baliq quyrug'idan ko'zi burniga ko'chadi¹⁴

Keltirilgan baytdagi *baliq quyrug'idan ko'zi burniga keldi* frazeologik birikmasi ishlatilgan bo'lib, unda *kunning qaytishi, ya'ni qorong'u bo'lishi* semantik ma'no anglashilgan.

Илету мене ачты дунйа созин
Айур комедин-му бу хаыан йузин

Ma'nosi:

Osmon qovog'ini soldi, ko'zidan yosh sochmoqda,
Gullar yuz ochdi, boq, kulmoqda qah-qahlamoqda¹⁵

Osmon qavog'ini soldi, ko'zidan yosh sochdi frazeologik iborasida tabiatning *injiqligi, ya'ni havoning sovish* holatini anglatadi. Bunda semantik obrazlilikni ko'rsatib bermoqda.

Shuni aytish mumkinki, frazeologik semantika so'zlarning mutloq belgi deb e'tirof etib, birikmalarni leksik-grammatik, semantik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ko'ramiz. Bu borada V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, O.S.Axmanova,

¹³ N.Jamolxonov.Hozirgi o'zbek adabiy tili,Toshkent,2006 ,208-b

¹⁴ Yusuf Xos Hojib .Qutadg'u bilig. Toshkent:Fan nashriyoti 1951, 73-bet

¹⁵ Xos Hojib .Qutadg'u bilig. Toshkent:Fan nashriyoti 1951, 123- b

V.L.Arxangelskiy, Yu.A.Gvozdarov, A.G.Nazaryan, S.Royzenzon, A.Bushuy kabi rus tilshunoslari frazeologizmlarni semantik hodisa ekanligini e'tirof etdilar¹⁶

Turkiy tilshunoslar Z.G.Uraksin, G.A.Bayramov, F.A.Bayramov, F.A.Ganiyev, G.X.Axunizyanov, L.K.Bayramov, M.F.Chernovlar, o'zbek tilshunosligida Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslar ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan, tuzilish jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarni frazeologik ob'ekt deb e'tirof etiladi.¹⁷

Ijtimoiy hayotimizda *osmon qovog'i'ni* soldi kabi iboralarni ishlatilishda bir qator sinonimiyasi mavjudligini ko'ramiz. *Avjoyi buzug bo'ldi, qahri keldi, tabiat injiqligini qo'ymadi* kabi iboralar ham ob-havoning o'zgarishi to'g'risida xabar beradi.

Ushbu frazeologik birliklarni tabiatini Sh.Raxmatullayev bittadan ortiq, so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi deb ta'kiqlab muayyan obraz asosida yuzaga kelgan ma'noni frazeologik ma'no deb ataydi.¹⁸

Будун тили йавлақ сени созлегей
Киши қылқы киргуч этинни йэгей

Ma'nosi:

Xalqning tili yomon seni so'zlagani so'zlagan
Kishilar fe'li hasadli, u sening etingni yeydi¹⁹

Bunda *sening etingni yeydi* frazeologik iborasi qo'llanilgan. Bu frazeologik birlikda *sening etingni yeydi* iborasida leksik, leksik-semantik jihatdan *qiyin holatga tushirish, qarshilikka uchratish, halok qilish* kabi ma'noni anglash mumkin.

Frazeologik birliklarni tahlil qilish jarayonida o'xshatma obrazlarni yaratishi va ularni qo'llashda obrazliliklarni yuzaga kelishini kuzatdik.

Тегурди мене елги еллик йашым
Куғу қылды қузгун туси-тег башым

Ma'nosi:

Ellik yoshim menga qo'l tegizdi
Qora quzg'un tusidek boshimni oq qildi (sochim oqardi)²⁰

Ushbu baytdagi *qo'l tegizmoq, boshini oq qildi* kabi frazeologik birliklarni qo'llanilishi obrazli o'xshatishni yuzaga keltiradi. *Qo'l tegizmoq, boshini oq bo'lishi* iborasida *keksayish, qarilik davrini kirib kelishi* nazarda tutilgan. Har ikkala frazeologik birliklar bir ma'noni anglatishga xizmat qilgan.

Элиг коз кулақ тутты элде қамуғ
Ачылды анар барча бэклиг қапуғ

Ma'nosi:

¹⁶ Balli.SH.Fransuskaya stilistika.M.,1961. 98-b..

¹⁷ B.I.Boltaboyeva.O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi, Filologiya fanlari bo'yicha falsfa doktori dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand ,2019 , 11-bet.

¹⁸ .I.Boltaboyeva.O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi, Filologiya fanlari bo'yicha falsfa doktori dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand -2019 y, 11-bet.

¹⁹ Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig.Toshkent,Fan nashiriyoti, 1951, 87- b.

²⁰ Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig.Toshkent,Fan nashiriyoti, 1951, 115 bet

Elig butun elga ko 'z quloq tutdi,
Uning uchun barcha berk eshik ochildi²¹

Ko'z quloq tutdi frazeologik birikmasida *ko'rdi va tingladi, berk eshiklar ochildi* frazeologik birikmalarda *qarshilik bo'lmadi, maqsadga* ma'nolarini anglatgan frazeologik birliklar qo'llanilishi orqali bir qator sinonimiyasini yuzaga keltirish mumkin: *quloq solmoq, devorga quloq osmoq. Berk eshik ochildi* birikmasini aslida o'z ma'nosida qo'llash ham mumkin, biroq ushbu baytda frazeologik birikma sifatida e'tirof etish orqali "yo'l ochildi", "maqsadiga yetish" kabi ma'nolarni anglashga xizmat qilgan.

Йәтурмеш-му кор сене хайл башин
Басынма бегинни кодезгил башын

Ma 'nosi:

Hayl boshing (toifa ulug 'i) senga tushuntirmagan edimi,
Begingni oyoq osti qilma, o 'zingni extiyot qil deb²²

Begingni oyoq osti qilma frazeologik birikmasini qo'llanishi *hurmat qilimaslik* natijasida yuzaga keladigan ko'ngilsizliklarni oldini olishga ogohlik ma'nosini anglashga xizmat qilmoqda. *Oyoq osti qilmoq* frazeologik iborasi *pastga urmoq, yerga urmoq* kabi frazeologik birliklarni ham sinonimiyasini yuzaga keltiradi.

Hayl boshing frazeologik birikmasi deyarli hozirgi tilimizda qo'llanilmasada *bosh so'zi* bu yerda *hayl* so'zi bilan birgalikda *jamoaning boshqaruvchisiga* nisbat berilgan. Ushbu holatni ham frazeologik birlikni yuzaga keltirgan.

Байат әдгу қылға бу соз созлеме
Бук у урма отун мәнин конлүмә

Ma 'nosi:

Xudo shifo beradi bunday so'zlarni so'zlama
Mening bag 'rimga o't bilan urma (bag 'rimni yoqma)²³

Bag'ringa o't bilan urma frazeologik birikmasini *bag'rimni yoqma* frazeologik birikma bilan sinonimiyasini qo'llash mumkin. Ushbu frazeologik birikma "qiynamaslik", "azob bermaslik" ma'nolarini anglashga xizmat qiladi. Bu frazeologik birikmalarni *bag'rimni kesma, bag'rimni tirnama* kabi sinonimiyalaridan ham keng qo'llanilish orqali yuqoridagi ma'nolarni anglashga erishiladi.

MUHOKAMA VA XULOSA

Ko'rinib turibdiki, turli davr ruhi o'zida aks etgan til xususiyatlarini tahlil qilish davomida asar matnidagi frazeologik birikmalarning qo'llanilishi hozirgi o'zbek adabiy tili nutqayi nazardan tegishli ma'nolarni bildirish holatlari topish murakkablik keltirib chiqarmaydi.

Xulosa sifatida shu aytish mumkinki, frazeologik birikmalarni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilishi asarning mazmunini yanada boyitishga xizmat qilgan.

²¹ Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig.Toshkent,Fan nashiriyoti, 1951, 123 bet

²² Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig.Toshkent,Fan nashiriyoti, 1951, 153-b.

²³ Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig.Toshkent,Fan nashiriyoti, 1951, 215 –b.

Frazeologik birikmalarni qo'llanilishi tarixiy jihatdan ham o'zbek tilshunosligda yuzaga kelganini hamda adabiyot namunalarida keng foydalanganini ko'ramiz

Foydalangan adabiyotlar:

1.SH.Mirziyoyev.Taraqqiyot yo'limining shiddati yanada oshaveradi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi,Toshkent, 2018 ,29 dekabr

2.Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig,Toshkent, Fan nashiriyoti, 1951.

3.B.I.Boltaboyeva. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi . Dessertatsiya avtoreferati, 2019.

4.N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2006 yil

5. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.Toshkent,Yangi asr avlodi,2008.

6.Uz.Wikipediya.Ochiq ensiklopediya.